



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;
Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shuhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

Ochilov Farhod,
Qarshi Muhandislik-Iqtisodiyot
Instituti mustaqil izlanuvchisi

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDAGI FAOLIYATI

Annotasiya. Ushbu maqolada Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishda mahallaning rolini yoritib berish va bir qatorda o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati tarixiga nazar solinadi.

Kalit so'zlar: "Fozil odamlar shahri aholisi haqida fikrlar", o'zini o'zi boshqarish tizimi, mahalla, Osiyo qit'asi, musulmon Sharqi.

Ochilov Farhad,
independent researcher
Karshi Engineering-Economics Institute

ACTIVITIES OF SELF-GOVERNMENT BODIES IN UZBEKISTAN IN SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION

Abstract. In this article, the role of the neighborhood in the social protection of the population in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, as well as the history of the activities of the self-government bodies, is reviewed.

Key words: "Thoughts about the inhabitants of the city of virtuous people", self-government system, makhalla, Asian continent, Muslim East.

Очилов Фарход,
независимый исследователь
Каршинский Инженерно-Экономический Институт

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль микрорайона в социальной защите населения в Республике Узбекистан в годы независимости, а также история деятельности органов самоуправления.

Ключевые слова: «Мысли о жителях города добродетельных людей», система самоуправления, махалле, Азиатский континент, мусульманский Восток.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N07>

Kirish. O'zbekiston hududida o'zini o'zi boshqarish tizimi qadim zamonlardan mahalla shaklida rivojlanib kelgan. Osiyo qit'asi va musulmon Sharqida davlat tuzilishi tajribasi va boshqaruvi o'z xususiyatlari va an'analariga ega. Arab istilosi va islom kirib kelishidan oldin paydo bo'lgan mahalla, unchalik katta bo'limgan, muayyan hududda yashovchi, nafaqat qo'shnichilik munosabatlari bilan, balki ichki xulq-atvor qoidalari, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, yuz yilliklar davomida shakllanib kelgan urf-odatlar va an'analar bilan o'zaro bog'liq

odamlarning jamoasi ko'rinishida mavjud bo'lgan[1]. Aholining bu turdagи ijtimoiy-iqtisodiy birlashishi tarixiy rivojlanishning har bosqichida o'zgarib borgan[2]. Aksariyat o'zbek oilalariga ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy o'zgarishlar aynan mahalla orqali kirib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mahalla institutining asosiy ahamiyati qo'shni jamoalar doirasida aholining maishiy faoliyatini ijtimoiy-hududiy tomondan tashkil qilishdir. O'sha davrlardayoq, Forobiy (873 — 950 y.) o'zining "Fozil odamlar shahri aholisi haqida fikrlar" nomli asarida, odamlar ko'payishi natijasida kishilik jamoalarga ehtiyoji borasidagi g'oyalarni ochib berib, shunday yozgan edi: "har bir inson o'z tabiatи bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi". "Shu bois, inson avvalambor qo'shnisi bilan yaqinlashadi. Yana biror qo'shnisi bilan bir ko'chada, bir mahallada, bir shaharda, va nihoyat, shu shaharni vujudga keltirgan bir mamlakatda yashaydi".

Keyinchalik, Abu Ali Ibn Sino (980-1037) "Uy xo'jaligi to'g'risida"gi traktatida bu fikrni rivojlantirib, "odamlar birgalikda jamoada yashashlari uchun doimo bir-biri bilan muloqotda va turli xil o'zaro munosabatlarda bo'lishi lozim, bir-birlariga foyda keltirish va bir-birlarining ehtiyojlarini qondirishi uchun ularga umumiyl intilishlar va maqsadlar zarur", deb yozgan edi[3].

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) fikricha, jamiyat paydo bo'lishi negizida insonlarning moddiy ehtiyojlari yotadi. "Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi "shartnoma" tuzishga kirishadi[4] ". Aynan shu narsa mahalla deb atalmish tushunchaning asosi bo'lib xizmat qiladi.

"Mahalla" arabcha "mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "mahallatun" so'zi "joy", "hudud" ma'nosini anglatadi. Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" (943-944) asarida Kandiz darvozalari oldidagi harakatlarni tasvirlaganda, o'sha hududda qachonlardir mavjud bo'lgan Fag'sodara mahallasini tilga olgan. Shuningdek, mazkur mahalla hududida joylashgan arablarning turar joylari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan[5]. Taxmin qilish mumkinki, arabcha "mahalla" termini mazkur hududni arablar tomonidan istilo etish natijasida paydo bo'lgan. Shu bilan birga, olim Narshaxiy misol sifatida keltirgan, Buxoroning Gardun kashon mahallasida ro'y bergen, alangasi Samarqandda ham ko'ringan yongin tasviri mahallalar o'sha uzoq o'tmishda ham mavjud bo'lganini tasdiqlaydi[6].

O'zbekiston "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 1992-yil 12-sentyabrdagi 472-son farmonni bajarish yuzasidan vazirlar mahkamasi qaror qiladi: Respublika "mahalla" xayriya jamg'armasining yuqori organi ta'sis konferensiyasi hisoblanadi. ta'sis konferensiyasi jamg'arma boshqaruvini va taftish komissiyasini saylaydi, apparat tuzilmasini, xodimlari soni va ular mehnatiga haq to'lash shartlarini belgilaydi. Boshqaruv apparatini saqlash "mahalla" jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Boshqaruv apparati xodimlarining soni ko'pi bilan 20 kishidan iborat qilib belgilandi[7];

Sovet mustabid tizimi davrida hukmron tizim va siyosiy mafkura mahallani rasman milliy ijtimoiy institut sifatida tan olmadi, aksincha, unga eskilik sarqiti, "o'rtta asrchilik" qoldig'i sifatida munosabatda bo'lindi. Sovet mafkuraviy tazyiqi ostida O'zbekiston oliv qonun

chiqaruvchi hokimiyati esa 1961 yilda mahallaning har qanday moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuritishini taqiqlab qo'ydi.

Biroq bunday ziddiyatli holatlar O'zbekistonda mahallaning o'rni, roli, ahamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadidi. Mahalla mustaqil o'zini-o'zi boshqaruvchi subyekt sifatida faoliyat ko'rsataverdi, kishilar o'z muammolarini hal etishda uning yordamiga muhtoj ekanliklarini yashirmadilar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov masalaning muhim ekanligini ta'kidlab, "Har qaysi inson, har qaysi xonodon hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, odamlarning boshini qovushtirish, turar joylarda tartib-intizomni mustahkamlashda, o'zini-o'zi boshqarish tizimini joriy qilishda mahallaning roli, ahamiyati va mohiyati kundan-kunga oshib borayotganini ko'rib turibmiz.

Shu bois, mahallaning hayotimizdagi mavqeyi yuksak, uning qonuniy-huquqiy asoslari har tomonlama mustahkam bo'lib rivoj topsa, bu idorani jamiyatimiz siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotining ajralmas bir qismi, quyi boshqarish tizimi sifatida nechog'li kuchaytirsak, buning uchun barcha moddiy-moliyaviy sharoitlarni tashkil qilib borsak, o'ylaymanki, bu o'z oldimizga qo'ygan oliy maqsadlarga erishish yo'lida katta qadam bo'ladi".

Mahallaning ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy institut ekanligini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi[8] deb qayd etilgan.

1993 yil sentyabr oyida "Fuqarolarning o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unga binoan mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyatning tarkibiga kirdi. Demak, mahallalar Davlatimizning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob-kitob raqamiga jamg'armasiga egadir[9]. Shunday qilib, davlat mustaqilligiga va siyosiy suverenitetiga erishish sharoitida davlatchilikning milliy shaklini tiklashga, O'zbekiston xalqlarining ijtimoiy turmushida milliy an'ana va odatlardan yana to'laroq foydalanishga intilish kuchaydi.

"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda mahalla, uning raisining vazifalari, burchlari belgilab berilgan. Jumladan, uning 22-moddasida mahalla oksokolining davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sud institutlarida, korxona, muassasalarda fuqarolarning manfaatini himoya qilishi, mahalla obodonligi uchun qayg'urishi, aholiga savdo-kommunal, maishiy xizmatni yaxshilashda yordam berishi, fuqarolarga xizmat ko'rsatish madaniyatini ta'minlash ustidan jamoat nazoratini tashkil etishi, aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, turar joylar, muktab va boshqa muassasalarning sanitariya holatini nazorat qilishni amalga oshirishga yordam berish, davlat va jamoat idoralariga nogironlar, boquvchisini yo'qotgan odamlar, ko'p bolali oilalar, yakka qolgan onalar, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan fuqarolarning moddiy va yashash, turmush sharoitlarini yaxshilash haqida taklif kiritish kabi qator vakolatlari mavjudligi belgilandi[10].

Tahlil va natijalar. Mustaqillikning ilk davridanoq mahallaning nufuzi ortib borishi e'tiborga olinib, O'zbekiston hukumati unga alohida diqqat qarata boshladi. 1992 yil 12 sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning "Respublika "Mahalla xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi, 1992 yilning 8 oktyabrida esa "Respublika "Mahalla" hayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida"gi Farmonlari e'lon qilindi.

Shu yilning 17 oktyabrida respublika Vazirlar Mahkamasining “Respublika “Mahalla” hayriya jamg’armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida”gi qarori e’lon qilindi. Qarorda jamg’arma faoliyatining quyidagi asosiy yo’nalishlari belgilab berildi:

- tarixan tarkib topgan milliy va ma’naviy qadriyatlarni keng targ’ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an’analarini ommalashtirish, respublika aholisi o’rtasida madaniy va ma’rifiy ishlarni keng yo’lga qo’yish;

- insonparvarlik va mehr-shafqat, kishilar o’rtasida o’zaro bir-birini tushunish va yaxshi qo’shnichilik g’oyalarini tushuntirish bo'yicha faol tashviqot va targ’ibot ishlarini olib borish;

- har bir aniq hududda yashovchi kamxarj oilalar, nogironlar, keksalar va bolalar huquqlarini har tomonlama ijtimoiy himoya qilish;

- har xil an’anaviy marosimlar o’tkazish;

- juda muhtoj oilalar va alohida shaxslarga tekin moddiy yordam ko’rsatish;

- mahallalar hududini obodonlashtirish;

- respublika mahalliy mahalla Qo’mitalari faoliyatini yaxshilashga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish[11].

O’rganilgan davrda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida mahallalar o’rni va rolini oshirish, ularning aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyatini yanada ko’tarishda jiddiy, ibratli ishlar amalga oshirildi. Ta’kidlash lozimki, o’tgan asrning 90-yillari boshida O’zbekistonndagi murakkab iqtisodiy holat, mavjud iqtisodiy mexanizmlarning buzilishi, ishdan chiqishi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismidagi muayyan qiyinchiliklar O’zbekiston hukumatidan bu borada jiddiy ishlarni amalga oshirishni talab qilardi.

Jumladan, 1997 yil 29 dekabrda O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning “Narxlarning liberallahsuvi munosabati bilan aholini ijtimoiy himoyalash choratadbirlari to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq minimal mehnat nafaqalari miqdori birdaniga 5 martaga oshirildi va uning hajmi 70 so’mdan 350 so’mga yetkazildi[12]

Ayniqsa, bu davrda yolg’iz qariyalarni qo’llab-quvvatlash juda muhim edi. Respublika bo'yicha ularning soni 30573 nafar bo'lib, shulardan 1717 nafari Qashqadaryo, 1861 nafari esa Surxondaryo viloyatidan edilar[13].

Mahalla yoshlari faoliyatida yolg’iz qariyalarni, umuman, yolg’iz fuqarolarni, balog’atga yetmagan bolalari bor ko’p bolali oilalarni ijtimoiy himoyalash masalalariga ustuvor ahamiyat berildi. 1994 yil 23 avgustda O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlarining davlat vazifalarini bajarishda ishtirok etishini boshlab berdi[14].

Shuningdek, 1994 yil 10 oktyabrdan boshlab kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordamning ana shu jamg’armalar mablag’laridan har oyda oylik to’lovlar to’lashlari topshirildi.

Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam qo’rg’on, qishloq, ovul, shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig’ini, yig’inni chaqirish imkonini bo’limganda esa qo’rg’onlar, qishloqlar, ovullar ko’chalar, turar joylari, mahallalarning fuqarolari vakillari yig’ilishining qaroriga ko’ra, tayinlanishi, moddiy yordam puli har oyda oilaning moddiy va mulkiy ahvoliga qarab, unga amaldagi eng kam ish haqining 1,5 dan 3 baravarigacha miqdorda to’lanishi, o’zini o’zi boshqaruv organlariga ajratilgan va foydalanimagan byudjet mablag’lari fuqarolar yig’inining

qaroriga binoan, aholi turar joylarini obodonlashtirish, gazlashtirish va suv bilan ta'minlashga, shuningdek, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etishga sarflanishi lozimligi belgilandi[15].

Ammo bunday o'ta mas'uliyatli ishga qator hududlarda mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish hollari uchradi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning "kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi 1994 yil 23 avgustdagি Farmonini bajarishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yildi[16].

Mazkur Farmonning joylardagi ijrosi respublika Bosh prokuraturasi tomonidan tekshirildi va qator kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, 1997 yilda Respublika hududidagi o'z-o'zini boshqarish organlarining joriy hisob raqamlaridagi mablag'larning 86,2 foizigina fuqarolarga moddiy yordam tariqasida to'langan xolos. 374,2 mln. so'm tarqatilmay qoldirildi. Surxondaryo viloyatida ishlatilmay qolgan mablag'larning hajmi 17,4 foizni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyatida esa 20 foiz mahallalarda belgilangan tartibga zid ravishda moddiy yordam to'lovlari amalga oshirildi[17]. Umuman, mazkur tekshiruv natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida 1997 yildagi mavjud 517 mahalla qo'mitasi va o'zini o'zi boshqarish organlaridan 374 tasi tekshirildi. Shulardan 79 tasida moddiy yordamning belgilangan tartibga zid ravishda berilganligi aniqlandi. Surxondaryo viloyatida esa barcha mahalla qo'mitalari va o'zini-o'zi boshqarish organlari soni 576 ta bo'lib, ularning 41 tasida belgilangan tartibga mos kelmaydigan ish bajarilgan[18].

Muhokama. O'zbek xalqining ko'p bolali millat ekanligi va uning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishdagi o'rnini e'tiborga olib mamlakat hukumati bolali oilalarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasiga katta e'tibor berdi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning 1996 yil 10 dekabrdagi "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi Farmonini alohida ta'kidlash lozim. Unga binoan, 1997 yilning 1 yanvaridan boshlab bolali oilalarga nafaqalar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari- shaharchalar, qishloqlar, ovullar, mahallalar fuqarolarning yig'lnlari tomonidan tayinlanadi hamda oilalarning shunday nafaqaga muhtojligi hisobga olinishi boshlandi. Yuqoridagilarga muvofiq 1 nafar bolali oilalarga eng kam ish haqining — 100 foizi, 3 nafar bolali oilalarga 140 foizi, 4 nafar va undan ortiq bolali oilalarga 175 foizi miqdorida to'lanadigan bo'ldi[19]. Farmonda bolali oilalarga nafaqa berish to'g'risidagi qarorni qabul qilish chog'ida ijtimoiy adolat tamoyillariga og'ishmay rioya etish, keng oshkorlik va ochiqlikni ta'minlash, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishga erishish majburiy ekanligi ta'kidlandi.

Bu borada Qashqadaryo viloyatida ham talay ijobiy ishlar amalga oshirildi. 1998 yilda viloyatda 1 ta shahar, 14 ta tumanlarda "Mahalla" jamg'armalari bo'limlari bo'lib, ular tarkibida 368 ta yuridik maqomga ega bo'lgan mahallalar bor edi. Ularning 180 tasi shahar va tuman markazlarida, 188 tasi esa qishloq fuqarolar yig'lnlari qoshida yangidan tashkil etilgandi. 226 ta mahalla esa qishloqlarda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatdi. 368 nafar mahalla oqsoqollari va shuncha kotiblari hokimliklarda mahalliy byudjetdan maosh oldilar.

"Mahalla" jamg'armasi viloyat bo'limi tomonidan ancha xayrli ishlar amalga oshirildi. Birgina 1997 yilda "Navro'z" bayramida 50 oilaga 35 ming so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Respublika mustaqilligi tantanalari arafasida 36 ming so'mlik kiyim-kechak hadya etildi.

Bunday ijobiy ishlar bilan birga o'rganilgan davrda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida mahalla roli, ijtimoiy nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham ko'p uchradi. Ular ko'proq subyektiv sabablar tufayli sodir bo'ldi. Masalan, O'zbekiston hukumatining kam ta'minlangan va bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilishga oid qarorlari, ko'rsatmalarini bajarishda mahallaning ayrim hollarda e'tiborsizligi, tanish-bilishchilikka yo'l qo'yish holatlari yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 3-fevraldagi PF-4944-son Farmoni bilan tasdiqlangan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish kompleks chora-tadbirlari dasturini bajarish hamda aholi, birinchi navbatda, yoshlari va xotin-qizlarning bandligiga ko'maklashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va mehnat organlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi[20]:

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy — mafkuraviy hayotida mahallaning o'rni va ahamiyati benihoya katta. Mahalla o'zbek xalqi xarakteri, turmush tarzi, faoliyat mazmunini o'zida aks ettirib, odatda millatni birlashtiruvchi, uyuştiruvchi, yo'naltiruvchi va jamoatchilik asosida Faoliyat yuritishga undovchi ijtimoiy institutdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2018 yil 1 apreldan fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifiy va ma'naviy- axloqiy tarbiya masalalari maslahatchilari lavozimi o'rniga har bir fuqarolar yig'inida 1 tadan, oilalar soni 2000 va undan ortiq fuqarolar yig'inlarida esa 2 tadan xotin-qizlar bilan ishslash va oilalarda ma'naviy — axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etildi"[21]. Shu bilan birga mahalla nozirlarining xizmat uylari ham mahallaning o'zida joylashgani hamda ularga imtiyozli ravishda yengil mashina berilgani ham mahallaga berilgan katta e'tibor namunasidir.

2017 yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilingan edi. Ushbu yil davlat Dasturi doirasida amalga oshirilgan ijobiy ishlarning ham qamrovi nihoyatda keng bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rzasida bu ishlar haqida to'xtalib, "Kam ta'minlangan, uy-joyga muhtoj 1200 dan ortiq nogiron fuqarolarga arzon uy-joy ajratish bo'yicha shartnomalar imzolanib, boshlang'ich to'lovlar uchun 22 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi[22]" degan edi. Bundan tashqari, 2017 yilda qishloq joylarida yangi namunaviy loyihibar asosida 24 mingta, shaharlarda 187 ta zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar barpo etilgani ham xalqimizning farovon hayotini ta'minlashga bo'lgan e'tibor namunasidir[23].

Xulosa. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida erishilgan eng katta yutuqlardan biri — aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi muvaffaqiyatlardir. Mazkur masala mustaqillikning ilk yillaridan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida tan olindi. Uning davomiyligi ta'minlandi. Mustaqillik yillarida keng qamrovli o'zgarishlarning barchasi inson uchun uning farovon hayoti uchun xizmat qila boshladи.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tanlangan tarixiy davrda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida muayyan tajriba to'plandi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlari Surxondaryo va Qashqadaryoda ham qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ваҳобов А. Давлат ҳокимиятининг маҳаллий бошқарув ва ўзини ўзи бошқариш органлари // Ўзбекистон Республикаси мустақил давлат. - Т.: Адолат, 1995. 142 - 143-бетлар.
2. Олламов Я.И. Сайдова Х.А. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш хуқуқи: назария ва амалиёт масалалари. -Т., 2006. 62-бет.
3. Маликова Г. Маҳалла институти ривожланишининг тарихий-хуқуқий масалалари, - Тошкент.-2017.Б.10.
4. Маънавият юлдузлари. -Т., 1999. 97-бет.
5. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. - Т.: «Шарқ баёзи», 1993. 53-бет.
6. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий, Бухоро тарихи. - Т.: «цврк баёзи», 1993, 83-бет.
7. <https://lex.uz/ru/docs/-506514>.
8. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2023.- Б.29.
9. Мустакиллик. Изоҳли илмий-оммабоп лугат. -\а\Тошкент: Шарқ, 2006. -Б. 189.
10. Жалилов Ш. Маҳалла янгиланиш даврида - Тошкент: Меңит, 1995.-Б.12.
11. Жамиятни ислоҳ қилиш йўлида.-Тошкент: Ўзбекистон, 1998.-Б.36.
12. Ўз МА. М-15 фонд, 1-рўйхат, 92-иш, 75-варақ.
13. Ўз МА. М-15 фонд, 1-рўйхат, 91-иш, 120-варақ.
14. Ўзбекистон овози. 1994 йил 25 август.
15. Ўз МА. М-15 фонд, 1-рўйхат, 411-иш, 689-варақ
16. Ўз МА. М-15-фонд, 1-рўйхат, 903-иш, 150-варақ.
17. Ўз МА. М-15-фонд, 1-рўйхат, 903-иш, 151-варақ.
18. Ўз МА. М-15-фонд, 1-рўйхат, 903-иш, 155 - варақ.
19. Ўз МА. М-15-фонд, 1-рўйхат, 1045-иш, 150-варақ.
20. <https://lex.uz/docs/-3445819>.
21. Аёл ва замон. 2018 йил 20 февраль.
22. Халқ сўзи. 2017 йил 8 декабрь.
23. Халқ сўзи. 2017 йил 8 декабрь.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).